

PREZIDENTLIK INSTUTI TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Kalimbetov Dilmurod Qahramon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi bo'limi magistranti.

ANNOTATSIYA

Mazkur ish davlat boshqaruvining demokratlashtirishdagi prezidentlik institutining tutgan o'rni va ahamiyati, prezident faoliyatining tizimli va samarali mexanizmini yaratish masalalarini tahlil etishga va ularni huquqiy va amaliy jihatdan takomillashtirishga bag'ishlangan. Bundan tashqari prezident vakolatlarini optimallashtirish, bu bo'yicha xorij mamlakatlari tajribasiga asoslangan va amaliy ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqilgan.

ANNOTATION

The work focuses on the role and importance of the presidential institution in the democratization of public administration, the analysis of issues of creating a systematic and effective mechanism of presidential activity and their legal and practical improvement. In addition, proposals have been developed to optimize the powers of the president, based on the experience of foreign countries and have practical significance.

Kalit so'zlar: Prezident, Prezidentlik instuti, hokimiyat bo'linishi, konstitutsion o'zgarishlar, davlat boshqaruvining demokratlashuvi

Prezident lavozimining joriy etilishi o'zbek davlatchiligi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, “*Prezident institutining joriy etilishi – respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o'tilishini bildiradi. Chunki shunchaki emas, balki haqiqiy davlatchilik hokimiyatning bunday tuzilmasini qo'lga kiritish imkoniyatiga ega. ... Prezident boshqaruvini hayotning o'zi, qayta*

qurishning mantig‘i, mohiyati, uning murakkab va ziddiyatli jarayonlari taqozo etdi”¹³

Sobiq ittifoqning oxirgi yillaridagi ijtimoiy hayotning hamma sohalaridagi tartibsizliklar, inqirozlarga uchrash O‘zbekistonda ham yaqqol sezila boshladi. Hamma sohalarning mutlaqo izdan chiqib ketishi respublika miqyosida yangicha boshqaruvga o‘tishni, Respublika bilan ittifoq o‘rtasida yangicha munosabat o‘rnatishni taqozo eta boshladi.

Buning uchun Respublikada aholini birlashtira oladigan, markaz hujumlariga bardosh beradigan, markazning roziligesiz, ishtirokisiz vujudga keladigan davlat boshlig‘i lavozimiga ehtiyoj sezildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston shu paytda ham mustaqil respublika – davlat hisoblansa-da, davlat boshlig‘i degan lavozim (bunday lavozimlar ittifoqda ham yo‘q edi) bo‘lmagan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi barcha davlatlar konstitutsiyalari o‘rnatgan davlat boshlig‘i degan institutni chetlab o‘tgan edi. Davlat boshlig‘i vazifasini har doim kommunistik partiya rahbarlari bajarib kelgan edi. Bu hech bir qonunda qayd qilinmagan edi. Shuning uchun bo‘xronli 90-yillarning oxirida har qanday mamlakatda legitim davlat boshlig‘i lavozimi bo‘lishini davrning o‘zi taqazo etdi. Shuning uchun avval sobiq ittifoqda davlat boshlig‘i – prezident lavozimi o‘rnatildi va 1990-yil mart oyida O‘zbekistonda sobiq ittifoqdagi respublikalar orasida birinchi bo‘lib Prezidentlik lavozimi – instituti o‘rnatildi.¹⁴

Dastlabki bosqichda prezidentlik instituti davlat hokimiyati tizimida markaziy o‘rinni egallab, siyosiy tizimning o‘zagiga aylandi. Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining poydevorini barpo etish hamda davlatning bosh islohotchi bo‘lishi zarurati o‘tish davrida Prezident zimmasiga katta mas’uliyat va strategik vazifalarni hal etish zaruratini yuklash barobarida uning keng vakolatlarga ega bo‘lishini taqozo etdi. Prezident davlat va ayni vaqtida ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i sifatida islohotlarning tashabbuskori, yangilanish va o‘zgarishlar jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylandi.

¹³ Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 142, 144.

¹⁴ Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – 552 b.

O‘zbekistonda prezident instituti (lavozimi) joriy qilinar ekan, u yoki bu davlatga o‘xhash uchun harakat qilishga yoki prezidentlik eng yaxshi yo‘lga qo‘yilgan davlatlarning tajribasi shundayligicha olinmadi. Yoki Respublika prezidentlik respublikasi bo‘ladi yoki parlamentar respublika bo‘ladi, degan maqsadlar qo‘yilmadi.

Prezidentlik joriy qilinar ekan, shu lavozimdan foydalanib mustaqillikka erishish, uni saqlash, boshqa davlatlar bilan kelisha oladigan davlat qurish, insonni eng oliy qadriyat darajasiga ko‘tarish va shu maqsadlar yo‘lida mamlakatdagi ba’zi kuchlarni birlashtira oladigan, iqtisodiy bozor munosabatining tamoyillari asosida qura oladigan vosita sifatida Prezidentlik tanlandi.¹⁵

Milliy davlatchiligidan va biz uchun yangi bo‘lgan erkin bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va qaror topayotgan dastlabki yillarda Prezidentga berilgan huquq va vakolatlarning bir qismini hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tuzilmalariga berish ishlari izchillik bilan olib borilmoqda. Agar mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 7 marta o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilingan bo‘lsa, ularning 5 tasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga oid XIX bobdagi qator moddalarga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilgani prezidentlik institutining huquqiy asoslari sezilarli takomillashayotganidan dalolat qiladi.

Erkinlashtirish davlat qurilishi va boshqaruvidagi islohotlarning asosini tashkil etib, u boshqa hokimiyat tarmoqlariga, shu jumladan, Prezidentning maqomiga ham taalluqli bo‘ldi. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilgan voqealardan biri 2002-yil 27-yanvarda bo‘lib o‘tgan referendum va uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan qonun bo‘ldi. Shular asosida Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar tufayli Oliy Majlis ikki palatali tuzilishda tashkil qilinadigan bo‘ldi. Prezidentning vakolati besh yildan yetti yilga o‘zgartirildi. Prezidentning ayrim vakolatlari Oliy Majlis Senatiga o‘tkazildi va Konstitutsiyadan Prezidentning Vazirlar Mahkamasi Raisi

¹⁵ Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – 552 b.

haqidagi qoida chiqarildi. Bularning barchasi demokratlashtirishning amaliy ifodasi edi.

2007-yil 11-apreldagi Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi qonunga asosan Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritilib, uning 89-moddasi quyidagi tahrirda bayon qilindi: “O‘zbekiston Republikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi”.¹⁶ Bu norma O‘zbekiston Prezidentining davlat hokimiyati tizimidagi o‘rmini, asosini, Prezidentning maqomini va eng asosiy vazifasini belgiladi.

Shu o‘rinda Prizentimiz Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligiga bag’ishlangan tantanada “... *bosh qomusimizni chuqur o’rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so’zsiz amal qilish barchamizning burchimizdir*” degan so’zlari orqali ham jamiyat va davlat hayotida qonuniylikni taminlashda Konstitutsianing o‘rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi.¹⁷

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda prezidentlik instituti O‘zbekistonni davlat mustaqilligiga erishishining asosiy omili bo‘ldi, respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o‘tilishini bildirdi hamda prezidentlik instituti qaysidir ma’noda davlat mustaqilligi kafili hamda davlat ramziga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
2. Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi. -T.: “O‘zbekiston”. 2018. 3-tom.
3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – 552 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. 89-97-moddalar. URL:<https://www.lex.uz>
5. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.04.2003 480-II-son. URL: <https://lex.uz/docs/-32913>

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. 89-97-moddalar. URL:<https://www.lex.uz>

¹⁷ Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi. -T.: “O‘zbekiston”. 2018. 3-tom.